

MAMLAKATLAR O`RTASIDA KAMBAG`ALLIK CHEGARASINI ANIQLASHNING USTUVOR YO`NALISHLARI

Karimova Oybibi Xamidovna
O`zbekiston Respublikasi Jamoat xayfsizligi
universiteti magistratura talabasi
lady.oybibi@mail.ru

Annotatsiya: Bu mavsу butun dunyo bo`ylab tarqalgan, yechimi qiyin bo`lgan kambag`alik illati, unining bosqichlari va uni aniqlashning muhim yo`nalishlarini o`z ichiga olib, O`zbekiston aholisining kambag`alik darajasini o`rganishda muhim hisoblanadi.

Аннотация: Данная статья важна в изучении уровня бедности населения Узбекистана, в том числе болезни бедности, которая распространена по всему миру и с трудом поддается решению, большое значение имеют этапы и направления черты бедности.

Abstract: This article is important in studying the level of poverty of the population of Uzbekistan, including the disease of poverty, which is spread all over the world and it is difficult to solve, its highly important the stages and directions of poverty line.

Kalit so`zlar: Kambag`allik, Jaxon banki, daromad, eng ka mish haqqi.

Kirish

Mavzuning dolzarbliji va zarurati: Global mashhuv jarayoni tobora chuqurlashib, davlatlar o`rtasida o`zaro manfaatli hamkorlik aloqalarining kengayishi natijasida hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) taraqqiyot dasturlarida belgilangan maqsadlarni hal etish borasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, chora-tadbirlar samarasi o`laroq, qo`lga kiritilayotgan ijobiy tendentsiyalarga qaramay, qambag`allik muammosi barcha rivojlanayotgan mamlakatlar qatori O`zbekiston Respublikasida ham o`tkir muammolaridan biriga aylangan¹. Kambag`allik bizga birinchi marta butun dunyo bo`ylab tarqalgan karanavurus padimiysi va global karantin sharoitlaridan keyin bu ko`rsatgich bizga o`zining salbiy satsial effektini namayyon qildi va mamlakatimiz tushunib yetdiki mu mavzu bo`yicha izlanish va unga yechim topilishi keragligi to`g`risida. Shuning uchun ham bu mavzu hozirgi global mashhuv jarayonida mamlakatimiz uchun dolzarb vazarur deb hisoblanadi.

O`zbekiston – aholi jon boshiga to`g`ri keladigan milliy daromad ko`rsatkichi bo`yicha o`rtacha daromadga ega mamlakatlar qatoridan joy oladi (Yiliga kishi boshiga

¹ “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnalı. № 1, yanvar-fevral, 2020 yil

o‘rtacha 1533 AQSH dollari). Daromadning o‘rtacha darajasi ikki guruhga bo‘linadi. Daromadi o‘rtacha darajadan past mamlakatlar – kishi boshiga yiliga 1036-4085 dollar va daromadi o‘rtacha darajadan yuqori mamlakatlar – kishi boshiga yiliga 4086-12615 dollar. Birinchi guruhdagi mamlakatlar uchun mezonlar qabul qilingan, bu mezonlar bo‘yicha kuniga kishi boshiga 3,2 dollar kambag‘allik chizig‘ining o‘rtacha ko‘rsatkichini anglatadi. Milliy daromadi o‘rtachadan balandroq mamlakatlar uchun kuniga kishi boshiga 5,5 dollar kambag‘allik chizig‘ining o‘rtacha ko‘rsatkichi deb qabul qilingan.

Bundan tashqari, Juhon banki tomonidan 2015 yildagi 115 ta mamlakatda o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida taklif etilgan uslubiyotga ko‘ra, barcha mamlakatlar uchun 2011 yildagi narxlarda xarid qilish qobiliyati pariteti bo‘yicha qashshoqlik chegarasi 1,90 \$ kambag‘allik chegarasini esa mamlakatlar aholisi daromadlarining past, o‘rta va yuqori darajalaridan kelib chiqib 1,90-2,15\$; 2,15-3,20 \$; 3,20-5,50 \$; va 21,70 \$ AQSh dollari etib belgilash tavsiya etilgan².

Juhon banki qashshoqlarni kuniga 1,90 dollardan kam daromad bilan yashaydiganlar deb belgilaydi³. Biroq, kambag‘allik darajasida bo‘lgan ko‘proq odamlar kam daromadli emas, balki o‘rtacha daromadda yashayotganligi sababli, bugungi kunda mamlakatlarda yuqori qashshoqlik chegaralari joriy etilgan.

Bu ko‘rsatgichlarni bizning yalpi ishlab chiqarish mahsulotimizga oladigan bo`lsak va hisoblasak, 2022 yil holatiga ko‘ra YIM=80,400,000 so`nni tashkil etib aholi sonimiz esa 09.12.2023 yilga ko‘ra 36 001 831. Biz qaysi qatlamga tegishli ekanligimizni bilishimiz uchun YIMni aholi jon boshiga bo`lishimizga to`gri keladi. Ana o`shanda aslida aholi jon boshining daromadi qanchaga to`g`ri kelishi kerakligini bilib olamiz.

Ma`lumki kambag‘allik darajasini o`lchash uchun eng avvalo mamlakatning YIMni aholi jon boshiga bo`lib chiqqan summa aholining eng kam daromad manmai sifatida hisoblanishi kerak. Bizning O`zbekistonda Yalpi ishlab chiqarish mahsuloti 2022 yil holatiga ko‘ra 80 400 000, aholi sonimiz esa 12.09.2022 holatiga ko‘ra 36 001 831 ni tashkil etadi. Ko`rinib turiptiki eng kam daromad aholi jon boshiga yiliga \$ 2.233,219 tashkil etishi kerak. Bu degani eng kam oylik daromad 2 285 083 tashkil etishi zarur ana o`shanda muozananat buzulmaydi. Misol sifatida quyidagi jadvalni ko`rishimiz mumkin.

² Мухитдинова М.З. “Аҳоли турмуш даражасини баҳолаш: таҳдил ва самара” - Халқаро молия ва ҳисоб илмий электрон журнали. № 2, апрель, 2019 йил.

³ <https://www.worldbank.org>

Jaxon bankining kambag`alikni o`lchash uslubi.

(1jadval)

N	Jaxon banki tomonidan belgilangan kunlik summa	Toylig daromad	So`m birligida (30.10.2023) holatiga ko`ra \$1.0=12280 (Markaziy bank 31.10.2023 kursi)	Aslida bizning mamlakatdagi eng kam daromad miqdori 1 kalendar oyga nisbatan= 2 285 083
1	\$ 1,90	\$ 58,90	723 292	Qashshoq mamlakatlar
1	\$ 2,15	66,65	818 462	Kambag`al mamlakatlar
2	\$ 3,20	99,20	1 218 176	O`rta hol mamlakatlar
3	\$ 5,50	170,50	2 093 740	Rivojlanayotgan mamlakatlar.
4	\$ 21,70	672,70	8 260 756	Rivojlangan mamlakatlar

4

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, Jaxon bankining bizga bergan ma`lumotlaridan kelib chiqib o`z davlatlarimizning kambag`allik chegarasini bilib olishimiz mumkin. Bu jadval aslida rivojlangan va rivojlanayotgan davlatga qarab turib, uning aholi jon boshiga to`gri keladigan mablag`ni tanlab hisoblab chiqishimiz mumkin. Bizning davlat rivojlanayotgan davlatlar sirasiga kirgan va har bitta aholing oylik daromadi oyiga 2 285 083 so`mdan kam bo`lmasligi lozim. Bizda esa eng kam ish haqqi 980.000 so`mni bugungi kunda tashkil etadi. Bundan ko`rinib turibtiki muozzanat buzilgan!

Foydalilanigan adabiyotlar:

- “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2020 yil
- Мухитдинова М.З. “Аҳоли турмуш даражасини баҳолаш: таҳлил ва самара” - Халқаро молия ва ҳисоб илмий электрон журнали. № 2, апрель, 2019 йил.
- <https://www.worldbank.org>
- Mualifning shaxsiy ijodidan Karimova Oybibi Xamidovna

⁴ Mualifning shaxsiy ijodidan Karimova Oybibi Xamidovna